

IJOLARI PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING MA'MURIY NAZORAT O'RNATILGAN SHAXSLAR TOMONIDAN HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETILISHINI OLDINI OLIH FAOLIYATI TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

Narzullaev Asilbek O'tkir o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi, 313 guruh kursanti.

Annotatsiya. *Maqolada IIO lari profilaktika inspektorlarining ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish faoliyatining mazmuni, ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy va huquqiy asoslari, mavjud muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etishning usul va shakllari yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'muriy nazorat, ma'muriy cheklov, nazorat ostidagi shaxs, sud qarori, jamoat tartibi, tajovuz, huquqbuzarlik, jinoyat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ta'sir chorasi, ijtimoiy himoya.*

O'zbekiston Respublikasi o'zining istiqlol yillarida barcha soxalarda tinmay o'zgarishlarni amalga oshirib kelmoqda. Shu bilan birga jaxonning ko'zga ko'ringan va rivojlangan mamlakatlari bilan turli soxalarda hamkorlikning yo'lga qo'yilgani va qo'yilayotganligi quvonarli xoldir.

O'zbeklar qadimdan ahloq-odobni insonning eng asosiy hususiyati sifatida bilib, farzandlarini yaxshi hulqli, odobli bo'lib tarbiya topishiga qattiq e'tibor qaratishgan. Mamlakatimizda bugungi kunda fuqarolarga juda ko'p imkoniyatlar va sharoitlar yaratilib berilmoqda. Biroq yaratilgan bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmasdan, turli noto'g'ri xatti-harakatlar bilan tekin daromad orttirish, birovlarining hisobiga parazit hayot kechirishni o'ziga kasb qilib olgan kimsalar mamalakatimiz rivojlanishiga katta to'sqinlik qilmoqda. Ayniqsa ba'zi bir shaxslarning tekin va oson yo'l bilan pul topishlari maqsadida jinoyat sodir etishlari mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Yangi O'zbekiston "Taraqqiyot strategiyasi"ning bosh maqsadida avvalo qonun ustuvorligi va jamiyat xavfsizligi yurt rivojlanishining asosiy bo'g'inlaridan xisoblanadi.

Shundan kelib chiqib ta'kidlash kerakki, huquqni muhofaza qilish organlari, shu jumladan ichki ishlar organlariga jamiyatimizda sodir bo'layotgan turli jinoyatchilikning oldini olish va ularga qarshi kurashishdek o'ta muhim va mas'uliyatli vazifa yuklatilgan. Ayniqsa ulg'ayib kelayotgan yoshlarni qalbiga yo'l topa bilish, ularning qalbida vatanga muxabbat, mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalaridan biri desak bizning to'g'ridir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib asosiy maqsad- jinoyatchilik bilan bog'liq ijtimoiy-salbiy illatlarni oldini

olishda turli toifadagi jinoyatchilikning oldini olishda va unga qarshi kurashishda ayniqsa jinoyat sodir etishga ko'proq moyil bo'lgan ilgari sudlangan shaxslar bilan ishlashda profilaktikaning usul va shakllaridan unumli foydalanish va bu boradagi ishlarni takomillashtirish hozirgi zamonning talabidir. Shulardan kelib chiqib har bir profilaktika inspektorlari zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi va xizmat vazifalarini samarali bajarishlarida kasbiy bilim, malaka, ko'nikmalar talab etiladi.

Profilaktika inspektorlari jinoyatlarning oldini olish maqsadida o'z ma'muriy xududida barcha fuqarolar bilan ayniqsa ilgari sudlangan shaxslar shu jumladan, ma'muriy nazoratda turuvchi ilgari sudlangan shaxslar bilan tarbiyaviy profilaktik ishlarni tashkil etuvchi asosiy sub'ektlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ular nafaqat ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga nisbatan nazorat-tekshiruv va tarbiyaviy mazmundagi profilaktik tadbirlarni amalag oshiradilar, balki ma'muriy xududdagi barcha fuqarolarga umumajburiy qoidalarga rioya qilishlarini nazorat qiladilar. Ma'muriy nazoratni ta'minlashda profilaktika inspektorlari avvalo O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalariga va aynan ma'muriy nazoratni tartibga soluvchi qonunlar qonun osti normativ xujjatlarga asosan bevosita faoliyat yuritishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonuni profilaktika inspektorlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarni belgilab beradi.

Qonunning 2-moddasida "Ma'muriy nazoratning asosiy vazifasi jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularga yakka tartibda profilaktik ta'sir ko'rsatishdan iboratdir", - deb belgilangan.

Mazkur norma asosida profilaktika inspektorlarining ayrim toifadagi shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni tashkil etishlari belgilangan bo'lib, bu faoliyati o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqalardan farqlanadi.

Shu bilan birga, profilaktika inspektor ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar bilan ishlash jarayonida ma'muriy nazoratning qonuniylik; demokratizm; adolatparvarlik; insonparvarlik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish va ularni hurmat qilish; belgilanadigan cheklovlarining differensiallashganligi va individuallashtirilganligi; qonunga itoatkorlik xulq-atvorini rag'batlantirish prinsiplariga qat'iy amal qilishlari lozim.

Shu bilan birga qonunda quyidagi tushunchalar berilgan:

mamuriy nazorat – nazorat ostidagi shaxslarga sud tomonidan belgilanadigan ma'muriy cheklovlarni qo'llashdan iborat tarbiyaviy-profilaktik ta'sir ko'rsatish choralari majmui;

mamuriy cheklov – huquqlar va erkinliklarni vaqtinchalik cheklash yoki zimмага majburiyatlar yuklatish bo'lib, ushbu cheklash yoki majburiyat yuklatish jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan belgilanadi;

nazorat ostidagi shaxs – o'ziga nisbatan ma'muriy nazorat amalga oshirilayotgan shaxs;

nazorat ostidagi shaxsning yashash joyi (yashash joyi) – nazorat ostidagi shaxs doimiy yoki vaqtincha propiska qilingan turar joy (5-modda).

Ichki ishlar organlari davlatning alohida funksiyasini bajarishi davomida o'ziga berilgan vakolat doirasida belgilangan normalarni bajarilishin ta'minlash maqsadida nazorat ishlarini olib boradi.

Ichki ishlar organlari tomonidan ma'muriy nazoratni shartli ravishda umumiy va maxsus turlarga ajratish mumkin. Ichki ishlar organlarining umumiy nazorati deganda, ichki ishlar organlarining kundalik ma'muriy faoliyatida davlat-hokimiyat vakolatlari doirasida o'rnatilgan qoidalarga rioya qilinishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat tushuniladi. Bunday nazoratga pasport tizimi qoidalari, nazorat-litsenziya, yong'in xavfsizligi, yo'l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat kiradi.

Umuman olganda, nazorat azoratning quyidagi ikki turi farqlanadi:

- umumiy ma'muriy nazorat;
- maxsus ma'muriy nazorat.

Umumiy nazorat deganda biz ko'pincha umumiy profilaktikaning bir qismi sifatida ham tushunamiz, lekin alohida oladigan bo'lsak umumiy nazorat davlat tomonidan qonunlar va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan o'rnatilgan qonun va qoidalarining vakolatli organlari tomonidan o'z vaqtida to'g'ri bajarilishi ustidan o'rnatilgan nazorat turidir. Profilaktika isnpketorlari tomonidan amalga oshiriladigan umumiy nazorat esa o'z navbatida davlat tomonidan amalga oshiriladigan ma'muriy nazoratning bir tarkibiy qismi demak bizningcha to'g'riroqdir.

Umumiy ma'muriy nazorat quyidagi xususiyatlarga ega:

birinchidan, u barcha fuqarolar va mansabdor shaxslar bilan xuquqbuzarliklarini oldini olish va uni to'xtatish maqsadida amalga oshiriladi;

ikkinchidan, bu nazorat fuqarolarning erkinligini cheklashni ko'zda tutmaydi;

uchunchidan, u protsessual tartibda o'rnatilmaydi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqavn xolda profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladigan umumiy nazoratni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

- pasport tizimi qoidalari;

- nazorat-litsenziya faoliyati;
- yo'l harakati havfsizligi nazorati.

Demak yuqorida ko'rsatib o'tilgan tushunchadan kelib chiqib, profilaktika inspektorlari ham o'zlariga birlashtirilgan ma'muriy hududda korxona, tashkilot, muassasa, o'quv yurtlari, mehmonxona, sanatoriyalar, dam olish joylari hamda fuqarolarning yashash joylarida pasport tizimi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishi borasida, nazorat-litsenziya faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat etilgan ob'ektlar va xonadonlarda nazorat-litsenziya faoliyatigi rioya etilishi borasida nazorat ishlarini amalga oshiradilar.

Sudyaning qarori ma'muriy nazorat o'rnatish uchun asos hisoblanadi. Ma'muriy nazorat olti oydan bir yilgacha belgilanadi. Bu muddat ichki ishlar organlarining taqdimnomasiga binoan, har safar yana olti oyga uzaytirilishi mumkin, lekin uzaytirilgan nazorat muddati mazkur jinoyat uchun belgilangan sudlanganlik muhlatining tugashi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi uchun qonunda nazarda tutilgan muddatlardan oshmasligi lozim.

Ma'muriy nazoratni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilayotganligini ko'rish mumkin:

1. Jamoat tartibini saqlash bo'yicha hokimiyat qarorlari bajarilishi yuzasidan nazorat;
2. Umummajburiy qoidalarga rioya etilishi yuzasidan nazorat, masalan: pasport tizimini nazorati, litsenziya qoidalarini bajarmaslik yuzasidan nazorat va hokoza;
3. Ma'lum bir toifadagi shaxslar ustidan nazorat. masalan: ilgari sudlangan shaxslar ustidan ma'muriy nazorat o'rnatish.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, birinchi va ikkinchi yo'nalishlarni umumiy nazorat deb hisoblash mumkin. Yuqoridagi 3 yo'nalish esa profilaktika inspektorlarining maxsus ma'muriy nazorati bo'lib, u bir necha marta sudlangan, jazoni o'tash paytida tuzalish yo'lga kirmagan, jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shab chiqqandan keyin ham jinoiy faoliyatini davom ettirishni mo'ljallayotgan va jamiyatga zid turmush tarzini yurituvchi shaxsga qonunda belgilangan asoslar bo'lgan ya'ni ma'muriy nazorat qonuni ta'siriga tushuvchi shaxslarga nisbatan tayinlanadi.

Yuqoridagi asoslar mavjud bo'lgan taqdirda ma'muriy nazorat Jazoni ijro etish muassasasi yoki Ichki ishlar organlarining asosli taqdimnomasiga muvofiq sud qarori asosida olti oydan bir yilgacha tayinlanadi.

Profilaktika inspektorlari ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxsning xatti-harakatlariga, shuningdek jamiyatga zid turmush tarzini davom ettirmasligi, jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashish, ma'muriy nazorat ostidagi shaxsning ijtimoiy ahvolini yaxshilashga alohida e'tibor qaratish bilan bir qatorda ular tomonidan jinoyat sodir etishining oldini olish, jinoiy aloqalari haqidagi

ma'lumotlarni o'rganish, ular to'g'risidagi malumotlar bo'yicha mutasaddi xizmatlar axborotlar almashib turish lozim bo'ladi. Bu esa ilgari sudlangan ya'ni ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslar tomonidan jinoiy faoliyatni takroran sodir etish holatlarini oldini olish va uning jamiyatga zid hulq-atvoriga chek qo'yish hamda ularga nisbatan o'z vaqtida qonuniy choralar ko'rish imkoniyatini beradi va shu maqsadda ma'muriy nazoratda turuvchi shaxslarning hulq-atvori, turmush tarzi ularning yashash va ish joylarida nazorat qilib boriladi. Zero, «jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, ayniqsa har bir jinoyat uchun jazoning muqarrarliligi ta'minlash, birinchi marta jinoyat sodir qilishi mumkin bo'lgan shaxslarni jinoyat sodir qilishdan to'xtatsa, jinoiy faoliyatni hayot kechirishning asosiy manbai deb hisoblaydigan ilgari sudlangan shaxslar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'z vaqtida aniqlash imkoniyatini yaratadi».

Maxsus ma'muriy nazoratning asosiy maqsadi – ilgari sudlanganlar tomonidan takroran jinoyatlar sodir etilishini oldini olish va ularni ijobiy ijtimoiy yo'lga kirib olishini shakllantirishdan iboratdir. Ayni vaqtda ma'muriy nazoratning o'rnatilishi va amalga oshirilishi nazorat ostida bo'lgan shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi, uning insoniy qadr-qimmatini kamsitmasligi, o'qish, ish va istiqomat qiladigan joyida obro'sini to'kmasligi lozim.

Profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslarga nisbatan ularning hulq-atvorini nazorat qilishni samarali tashkil etish maqsadida ma'muriy nazorat yig'ma jildi yuritiladi.

Profilaktika inspektorlari fuqarolar tomonidan umumiy nazorat qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash hamda ma'muriy nazorat o'rnatilgan ilgari sudlangan shaxslar ustidan nazoratni tashkil etish, ular bilan yakka va umumiy tartibdagi profilaktik ishlarni olib borish samarali tashkil etish maqsadida II O'lni boshqa xizmatlari va jamoatchilik imkoniyatlaridan kengroq foydalanishi lozim.

Jazoni ijro etish joylaridan bo'shab chiqqan shaxslarga nisbatan o'rnatiladigan ma'muriy nazorat ichki ishlar organlarining faoliyatida o'z ahamiyati va hajmiga ko'ra muhim ahamiyat kasb etib, o'zida tezkor-qidiruv, yakka tartibdagi profilaktik va tarbiyaviy ishlarni qo'llanishini mujassamlashtirgan. Buni inobatga oladigan bo'lsak, ma'muriy nazorat - ilgari sudlangan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularni jamoat tartibini buzishga yo'l qo'ymaslik, ularda ijobiy xislatlarni shakllantirish va axloqan tuzalishini mustahkamlashning muhim huquqiy vositasi bo'lib hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar huquqni muhofaza etuvchi organlar tomonidan doimiy nazorat yuritilishi va ularning turmush tarzini tekshirib turilishini taqazo etadi, fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlari jamoat tartibini ta'minlash, odamlarning hushyorligi va yon-atrofda ro'y berayotgan voqealarga ongli munosabatini oshirish uchun o'z ishlarini faollashtirishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi O'RQ-532-son Qonuni.
4. Таштемиров А. А., Комилов А. М. Ў. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.
5. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.
6. Таштемиров А. А. и др. Нуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 454-461.
7. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.
8. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.
9. Tashtemirov A., Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining

tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 62-67.

10. Tashtemirov A., Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iiolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslarI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 50-53.

11. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o 'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.